

TADBIRKORLIK FAOLIYATI VUJUDGA KELISHI MASALASIGA DOIR

Soʻfiev A.A.

Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16886370>

Annotatsiya Mazkur maqolada mumtoz manbalardagi, Sharq va Gʻarb, Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy koʻrinishlarini targʻib qilgan jadidlarning qarashlaridagi tadbirkorlik faoliyati, uning vujudga kelishi, tadbirkorning faoliyatida huquqiy madaniyatning oʻrni haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: tadbirkorlik faoliyati, huquqiy-normativ asoslar, strategik islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy mohiyat, mehnat, falsafiy-axloqiy fikrlar, mehnatsevarlik, baxt-saodat, mulkdor.

Tadbirkorlik faoliyati, uni tartibga soluvchi huquqiy-normativ asoslari, tadbirkor shaxsning kasbiy maxsus madaniyati tarkibida huquqiy madaniyatini rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan strategik islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy mohiyati yotadi. Tarixiy manbalarga qaraganda, tadbirkorlik faoliyatini vujudga kelishining ildizlari uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Bizga maʼlumki, XVI asrga qadar oʻlkamizdan “Buyuk ipak yoʻli”ning eng asosiy irmogʻi oʻtgan boʻlib, savdogarlik, oldi-sotdi, hunarmandchilik keng rivoj topganligini koʻrishimiz mumkin. Shu maʼnoda baʼzi milliy-mental qarashlarda tadbirkorlik dastlab aynan savdogarlik shaklida qaror topgan degan qarash ustun boʻlib kelgan.

Mumtoz yozma manbalarda, xususan, “Avesto”da inson mehnatini ulugʻlovchi, dangasalikni qoralovchi falsafiy-axloqiy fikrlar, mehnatsevarlikdan saboq beruvchi gʻoyalarda jamiyat va inson hayotining farovonligi alohida eʼtirof etilgan [1].

Qadimgi Yunonistonda tarkib topgan falsafiy taʼlimotlarda tadbirkorlik masalasiga alohida toʻxtalib oʻtilgan. Jumladan, Platon oʻzining “Qonunlar” asarida “davlat va tadbirkorlik munosabatlari masalasiga eʼtibor qaratib, iqtisodiy erkinlik sharoitidagina ular oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlash mumkinligi” [2], buyuk faylasuf Aristotelning fikricha, “Tadbirkor adolatli ishlarga qoʻl urishi, muntazam ravishda xayrli ishlar bilan shugʻullanishi lozim” [3] degan fikrlari tadbirkorlikning ijtimoiylashuviga alohida urgʻu beradi.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy oʻzining “Fozil odamlar shahri” nomli asarida qoʻli ochiq tadbirkorlar haqida alohida toʻxtalib oʻtadi. Forobiyning fikricha, “Insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa haqiqatan fazilatli, yetuk, xosiyatli jamoadir. Insonning kelajagi, uning baxt-saodati haqida gʻamxoʻrlik qilish, uning qaygʻu-alamiga sherik boʻlish hissi aynan tadbirkorlarda shakllangan boʻlmogʻi lozim” [4]. Abu Nasr Forobiy jamiyatda tadbirkorlikning rivojlanishida qonunlarning oʻrniga alohida eʼtibor beradi. Shuning uchun ham alloma “Rahbar yana ogʻirlik oʻlchovi, don-dun va shakarga oʻxshash narsalar oʻlchovlari haqida ham hech kimga zarar keltirmaydigan savdo haqida qonunlar chiqarishi kerak. Shu bilan birga qonun chiqaruvchi, qonunlarda hamma badavlat va faqir kishilarning ahvolini aks ettiruvchi zarur, toki qonunlarni buzuvchi va oʻzining insonlarini oxirigacha tuzatmay razilliklarni yangilovchi odamlar toifasi nazardan tushib qolmasin” [5] deb yozadi. Abu Rayhon Beruniy tomonidan, “...savdogarlik (tadbirkorlik) ka oid qarashlarida odamlarning oʻzaro ixtiyoriy kelishuvini asosiy omil” [6] kabi fikrlar ilgari suriladi.

Mavzu doirasidagi tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, tadbirkorlik faoliyati asosan XVIII asrda shakllangan boʻlib, u koʻpincha “mulkdor” degan tushuncha bilan bogʻliq holda

izohlangan. Ta'kidlash joizki, tadbirkorlik tushunchasiga ham aynan shu davrda yashab o'tgan taniqli ingliz iqtisodchi olimi R.Kantilton ilk marotaba maxsus ta'rif bergan. Keyinchalik esa tadbirkorlik va uning ijtimoiy, huquqiy hamda falsafiy asoslarini ishlab chiqish borasida I.Kant, F.V.Gegel, J.J.Russo, Sh.L.Monteskellar alohida tashabbus ko'rsatganlar. Buyuk fransuz siyosatchi, jamiyatshunos va faylasuf olim Sharl Lui Monteskening quyidagi liberal-demokratik qarashlarini keltirish mumkin: "Erkinlik deganda shaxs istagan narsasini qilaverishi emas, balki faqat qonunlarda aks etilgan xatti-harakatlarnigina amalga oshirish huquqi ekanligini tushuntirib, inson faoliyatini faqat qonunlar orqali amalga oshirish mumkinligi"[7] ni alohida ta'kidlab o'tadi. Mazkur liberal qarashlar zamonimizda ham tadbirkor faoliyatining rivojlanishi, tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim nazariy-konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

G'arbda "liberalizm" g'oyasining yetakchilaridan hisoblangan Jon Lokk esa davlatning vazifasi o'z tadbirkorlarini xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish, xususiy mulk dahlsizligini ta'minlash, tartib saqlashdan iboratligini ta'kidlab o'tadi. V.Petti ham o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida erkin tadbirkorlikni himoya qiladi. Xususiy mulkni u "Muqaddas" va "Dahlsiz" deb bilgan [8].

Hozirda MDH mamlakatlari doirasida ham tadbirkorlik masalasi turli ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar asosida talqin qilinmoqda. Xususan, V.S.Avtonomov tadbirkorlik faoliyatini antropologik yondashuv asosida izohlab, "tadbirkorlikda insonning ratsional qarorlari va funksional boshqaruvdagi ijodkorligi qo'l keladi" [9] degan bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatiga oid "cheklangan imkoniyat" atamasi muallifi G.Saymon "Tadbirkorlik faoliyatida muayyan muvozanat va optimal muhit zarur" [10] ekanligini ta'kidlaydi.

Iqtisod bo'yicha Nobel mukofoti laureati M.Alle "Tadbirkorning mustahkam ratsional faoliyati o'z-o'zidan shaxsiy maqsad va ularga erishish yo'llari usullarini aks ettiradi" [11] deb yozadi. Bunda tadbirkorning biron-bir maqsadni amalga oshirishni chin dildan xohlashi va unga muvofiq ratsional fikr yuritishi uning samarali natijalarga erishishidagi muhim qadam hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotda aniqlanishicha, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib qilgan jadidlarning faoliyati mamlakatni feodal qoloqlikdan chiqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday taraqqiyparvar, ma'rifatparvar jadidlar jumlasiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalarni kiritish mumkin. "Zero, jadidlarning o'z davrida xalq hayotini yangilash - modernizatsiyalash, jamiyatdagi iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy g'oyalari nafaqat o'z davrida, balki, keyinchalik ham O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlanishiga ma'lum ma'noda bo'lsa ham o'z ta'sirini ko'rsatdi" [12]. Ta'kidlash lozimki, jamiyatning butun aholisi, yoshlari, ayniqsa tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirish uchun, ularning umumiy madaniyat tarkibiga kiruvchi huquqiy madaniyatning barcha elementlarini tarkib toptirishga aloqadordir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida tadbirkorlik va uning turli rivojlantirish yo'llari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida atroflicha yoritib berilishi bilan bir qatorda bu masalaga "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi"da alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur "Taraqqiyot strategiyasi"da raqamli va yashil iqtisodiyotga o'tish va tadbirkorlikni rivojlantirishda O'zbekistonga xos yo'lning nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, muammolari va ularning hal etish yo'llari batafsil yoritib

berilgan” [13]. Bundan ko’rinadiki, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tadbirkorlikning turli jabhalariga oid konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishda faollik ko’rsatgan. Jumladan, “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asarida o’zbek xalqining xarakteri va tabiatiga xos bo’lgan, rahbar kadrlar, tadbirkorlar o’z faoliyatlari natijasida yuqori natijalarni ko’rsatishlari uchun kasbiy bilim va qonunlarni mazmun-mohiyatini bilishlari talab etiladi, shuningdek milliy qadriyatlarimiz va qonunchilik normalari o’rtasidagi uzviy bog’liqni saqlagan holda ma’naviy jihatini ham inobatga olish zarur hamda boshqa jihatlariga tayangan holda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi ko’rsatilgan.

Bugungi transformatsiyalashuv davrida huquqshunoslik sohasida ham tadbirkorlik masalasini tadqiq qilish va tartibga solish ijobiy ilmiy-nazariy yutuqlar qo’lga kiritilmoqda. Jumladan, huquqiy madaniyat nazariyasi va metodologiyasi doirasida tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini yuksaltirishga dahldor bo’lgan konseptual yondashuvlar xuquqshunos nazariyotchilar U.Tadjixonov, A.Saidovlarning olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida yanada boy mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Mazkur huquqshunos olimlarning “Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo’lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo’lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz” [14] kabi ta’rifni ko’rishimiz mumkin. Biroq, bu olimlarning ilmiy izlanishlari asosida nafaqat jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirish, balki tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishga oid taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishda keng ko’lamda foydalanilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish masalasi suverenitetimizning dastlabki yillaridanoq, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning qaror topishi bilan dolzarb masalaga aylandi, uni huquqiy tartibga solish, madaniy jihatdan qaror toptirish hamda ilmiy-nazariy tadqiq etishni ham talab etardi. Zero, bu muammoning ijtimoiy-madaniy, falsafiy-huquqiy jihatini o’rganish bilan bir qatorda uning hozirgi amaliy hayotdagi o’rni va rolini tadqiq etish dolzarb va muhimdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Avesto. A.Maxkamov tarjimasini. - Toshkent: Sharq, 2001. - B. 248.
2. Platon. Qonunlar. (Rus tilidan O’rfon Otajon tarjimasini.) - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. - B. 95-96.
3. Аристотель. Политика. Соч. В.4-х томах. - Т.4. - Москва: Мысль, 1984, - С. 379.
4. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993. - B. 186.
5. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993. - B. 38.
6. Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar, I tom, 1968. - B. 268.
7. Монтескье Ш. О духе законов. - Москва: 1955. - С. 163.
8. Антология экономической классики. (В двух томах) Т.1. - Москва: Эконов. 1991.
9. Автономов В.С. Модель человека в экономической науке. - С-Петербург: 1998. - С. 12.
10. Саймон Г. Рациональность как процесс и продукт мышления//THESIS. 1993. - С. 74.

11. Алле М. Условия эффективности в экономике. - Москва: 1998. - С. 185.
12. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Toshkent: Ma'naviyat, 2002. - B. 154.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 484.
14. Tadjixonov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. - Toshkent: 1998. - B. 11.